

## ANTONIMLARNING O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI TAVSIFI, O‘RNI VA ULARNIG TURLI JIHATDAN TASNIFLANISHI

Anvarova Farzonabonu  
FarDU talabasi

### ANNOTATSIYA

Ушбу мақолада инглиз ва ўзбек тилларида антоним сўзларнинг аҳамияти, уларнинг таснифланиши ҳамда улар орасидаги ўхшашлик ва фарқлар, шунингдек ушбу соҳада олимлар томонидан олиб борилган тадқиқотлар ва олинган натижаларнинг самарадорлиги, бугунги таълим тизимига татбиқ этилганлиги доираси тўғрисида фикрлар келтирилган.

**Kalit so‘zlar:** antonim, antonimiya, til birligi, o‘zbek tili, xorijiy tillar, davlat tili

### АННОТАЦИЯ

В данной статье значение антонимов в английском и узбекском языках, их классификация, сходства и различия между ними, а также исследования, проведенные учеными в этой области и эффективность полученных результатов, сфера их применения в современном образовании система представлена.

**Ключевые слова:** антоним, антонимия, языковая единица, узбекский язык, иностранные языки, государственный язык.

### ABSTRACT

In this state, the meaning of antonyms in the English and Uzbek languages, the classification, similarities and differences, as well as the research, the implementation of the studies and the effectiveness of the obtained results, the sphere of application and the modern education system are presented.

**Keywords:** antonym, language unit, Uzbek, foreign languages, state language

Barchamizga ma'lumki, yurtimizda ko‘plab o‘zgarishlar o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan so‘ng yuz berdi, shuningdek, chet tillariga bo‘lgan e’tibor ham yanada oshdi va natijada xorijiy tillarni o‘qitishga oid turli islohotlar amalga oshirildi. O‘z ona tilimz bilan birgalikda, ingliz, rus, nemis, fransuz kabi tillar ham o‘qitilishi davlatimizning porloq kelajagini bunyod etish maqsadida yo‘lga qo‘yildi. Umuman olganda, barcha tillar keng imkoniyatli va rang-barang tillar ekanini yaxshi bilamiz.

Ushbu maqola orqali ingliz hamda o‘zbek tillarida antonimlarning qay darajada ahamiyatligiga to‘xtalib, ularga yangicha nigoh bilan qarashlik va bu haqda qisqacha

yoritib berishlikka qaror qildik. **Antonimiya** bu semantik aloqadorlikni ifadalovchi konsept sifatida muhim lisoniy ahamiyat kasb etadi. Antonimlar odatda juftlik tarzida iborlarda (Tog` dan kelsang, bog` dan keladi), maqollarda (Dushmaning 1 ta bo`lsa ham ko`p, do`sting 1000 ta bo`lsa ham kam; East or west, home is best. (Xoh Sharq bo`lsin, xoh g`arb, o`z uyish baribir yaxshi (o`zbek tili talqinida: o`z uying – o`lan to`shaging))), va boshqa turli adabiy janrlarda (tazod: Bu kun vaslingni tark ayla, tilar Jannat zohidlar, Berurlar nasyag`a naqdni, u ne nodon xaloyiqtur? Atoyi) keng foydalaniladi va nutqqa o`ziga xos bezak beradi.

Bundan tashqari, antonimlar til o`rganishda ham o`z o`rniga ega lisoniy hodisadir. Masalan, “beautiful” (chiroyli so‘zi) “not ugly” (xunuk emas) so‘zi bilan izohlanadi. Bir-biriga zid tushunchani ifodalovchi antonim so‘ziga olimlar turlicha ta’riflar bergenlar. Tilshunos S. J. Smit XIX asrda “antonim” tushunchasiga oddiygina qilib “sinonim” tushunchasining aksi yohud teskarisi deb ta’rif berdi. Keyinchalik esa bu ta’rif turli muhokamalarga sabab bo`lgani tufayli XX asrga kelib antonim konseptiga aniqlik kiritila boshlandi. Xususan, 1977-yilda Lyons antonimni “zidlanish va qarama-qarshilik asosiga qurilgan so‘zlar munosabati” , - deya ta’rif berdi. Masalan, uzoq va yaqin so‘zleri o`rtasidagi aloqadorlik antonimiyanı ifodalaydi. Boshqa bir tilshunos olim Lich esa “antonim va antonimiyanı semantik tushunchalar sıfatida ta’riflab qarama-qarshi ma’nolar o`rtasidagi aloqadorlik antonimiya, qarama-qarshi ma’noni esa antonym” , - deb ataydi. Xitoylik mashxur tilshunos Hu Zhuanglin oddiygina qilib antonimiya qarama-qarshilik asosidagi aloqadorlik ekanini tasdiqlaydi.

O`zbek tilshunoslida dastlabki antonimlar tadbiqi o`tgan asrning 70- yillarida R. Shukurov tomonidan amalga oshirildi va bir-biriga yaqin tushunchalar ya`ni, omonimlik, polisemiya va antonimiyaning farqlari, ularning leksik-semantik xususiyatlarini o`z ichiga olgan dastlabki “O`zbek tilida antonimlar” nomli ilmiy asar yozildi. Asarning tahsinga loyiq joyi shundaki, asarda asosan antonimlarni yasalish jihatidan turlarga ajratilganligi, ya`ni shakl nuqtai nazaridan xosil qilinishi tadbiq etilganligi, ma’noning miqdoriy jihatdan antonimlarning tasniflanishidir. Antonimlar formal jihatdan xosil bo`lishiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi: leksik antonimlar (uzun-kalta, long-short); affiksal antonimlar (e`tiborli-e`tborsiz, careful-careless) hamda sintaktik antonimlar (yuzi yorug` bo`ldi-yuzi yerga qaradi). Bularidan shunday ma’no anglashiladiki, antonimiya bu ma’lum bir lison birliklarining o`zaro qarama-qarshiligi.

Ingliz tili semantikasi o`zbek tiliga nisbatan qisman murakkabroq bo`lib, ularda antonimlarning 3 turi mavjud va ular: gradable antonyms-asliy antonimlar (hot-cold ya`ni, issiq-sovuq); complementary antonyms-to`ldiruvchi antonimlar (inhale-exhale ya`ni, nafas olmoq-nafas chiqarmoq); hamda relational antonyms-nisbiy antonimlar (doctor-patient ya`ni, shifokor-bemor).

S.Usmonov o‘zbek tilshunosligida antonimlarning leksik semantik xususiyatlariga ko‘ra tasnifini birinchi bo‘lib boshlab berdi. Uning izlanish natijalari shuni ko`rsatadiki, antonimlar bir-birini inkor etish darajasiga ko‘ra, to‘la va yarimga bo‘linadi. To‘la antonim ingliz tilidagi gradable (asl, asliy) antonimga to‘g‘ri keladi. Ular doim bir konsept doirasida vujudga keladi. Masalan, issiq-sovuq- hamma joyda, do‘st-dushman ham shunday. Yarim antonimlarda esa o‘zaro zidlik kuchsizligi yaqqol sezilib turadi, lekin bu shuni anglatadiki, ular zidligini kontekstdan anglab olish mumkin. Masalan: opa-singil (ular umumiy tushuncha-farzand tushunchasi ostida birlashsa-da, biri ikkinchisisiz ham mavjud bo‘lishi mumkin: ular muntazam juftlik xossasiga ega emaslar, lekin tenglik nuqtayi nazaridan bir xil darajadadirlar). Bu tushunchalardan shuni xulosa qilish mumkinki, o‘zbek tilida ingliz tilidan farqli ravishda 3 ta leksik-semantik antonimlar turi mavjud ekan. Yana bir muhim farq shuki, buni ziddiyat ya’ni qarama-qarshilik deb olsak ham to‘g‘ri bo‘ladi, bizningcha. Ingliz tili grammatikasida antonimlarning uchinchi turi sanalmish “relational antonyms” (nisbiy) bizning tilda turlicha talqin qilinishi ham mumkin. Ularni ba’zi tilshunoslari, bizning milliy tilimizda bunday tur mavjud emas desalar, ba’zi adabiyotlarda esa, ingliz tilidagi “relational antonyms” (nisbiy) hisoblangan teacher-pupil antonimlari bizda antonim sanalmaydi aksincha, muallim-o‘quvchi shaklida oddiygina “uyadosh so’zlar” sirasiga kiradi. Bu mavzuni davom ettirar ekanmiz, o‘zbek tili antonimlarining tarkibiga kiruvchi «sintaktik antonimlar» ya’ni, tom ma’noda iboralar asosida qurilgan qarama-qarshiliklar bizning nutqimizda eng ko‘p qo‘llaniladigan turlardan sanaladi. Chunki xalqimiz iboralarga kundalik hayotda ko‘p marotaba murojaat qilishadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi (qo‘li uzun-qo‘li kalta, ya’ni, boy-kambag‘al ma’nosida). Bu tur ingliz tili grammatikasida mavjud emas. Lekin umuman olganda, ikki til o‘rtasida farqlar borligiga yarasha, yuqorida sanab o‘tilgan bir qancha o‘xshashliklarni ham topish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolbekov, S. B. (2020). Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi. Science and Education, 1(5).
2. Jumaniyozov, S. A. (2020). Abdulla Qahhor hikoyalarini o’rganishda innovatsion metodlar. Science and Education, 1(5).
3. Matkasimova, D. B. K., & Makhmudov, K. S. U. (2020). Importance of Interactive Methods in the English Language Grammar Teaching. Science and Education, 1(Special Issue 2). "Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Special Issue 3 www.openscience.uz 91

**Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22322>**

4. Шайхисламов, Н. (2020). Студенттердің ана тілі мен әдебиеті пәнін менгерудің педагогикалық негіздері. Образование и наука в XXI веке, 1(6), 421-426.
5. Шайхисламов, Н. (2020). Социолингвистические аспекты и стилистика языка. Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo‘llanishi, 796-799.